



ARTICLE INFO

Received: 30th September 2022

Accepted: 04th October 2022

Online: 07th October 2022

KEY WORDS

ona personaji, asardagi konflikt, ekspozitsiya, kulminatsiya, yechim...

MUALLIF BADIY NIGOHIDA PERSONAJ TASVIRI

Abdurahmonova Gulorom Iskandar qizi¹, Hafizova Feruza

Odiljonovna²

¹ Termiz davlat universiteti 2 - bosqich talabasi
+998912440253

² Ilmiy rahbar. Termiz davlat universiteti
O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasini o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7161801>

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'tkir Hoshimov asarlarida ona personaji, asarlarida onalar surati va siyratini aks ettirishdagi o'ziga xosliklar, onalarning mehr-muhabbati cheksizligi yorqin ifodalangan. Bunda yozuvchining "Dunyoning ishlari" asari asosidagi onalar obrazining buyukligi realliklarini badiiy talqin qilish orqali mahoratli ijodkorning o'z onasini tasvirlashi bilan butun dunyo onalarini ta'riflashdagi ruhiy kechinmalarini yoritib berishga harakat qildim.

O'zbekiston xalq yozuvchisi, o'tkir nafasli jurnalist, jonkuyar adib O'tkir Hoshimov 1941-yilda Toshkentning Do'mbirobod mahallasida tug'ilgan. Yoshligidan ilmga, adabiyotga qiziqqan bo'lajak yozuvchi 5-sinfda o'qib yurgan vaqtlarida yoq she'r mashq qila boshlagan. Dastlabki kitobi esa yozuvchining talabalik yillarida nashr etilgan. Adibning "Odamlar nima derkin", "Shamollar esaveradi", "Bahor qaytmaydi", "Qalbingga quloq sol", "Nur borki, soya bor", "Ikki eshik orasi" kabi qator asarlari hozirga qadar qalblardan chuqur o'rin egallab kelmoqda.

Personaj (lotincha persona-shaxs, teatr maskani) badiiy adabiyotdagi inson obrazi, adabiy asardagi voqea ishtirokchisi, his-kechinma va nutq sub'ekti. Personaj termini qahramon ishtirok etuvchi (dramatik asarda) xarakter termini bilan bitta sinonimik qatorni tashkil qilib, ma'no jihatidan neytral bo'lgani bois bu qatorda dominant vazifasini o'taydi.

O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi har biri mustaqil syujetli hikoyachalardan iborat. Undagi "Oq marmar", "Surat", "Alla", "Gilam paypoq", "Tush" kabilar yozuvchining mahoratidan darak berib turadi. Hamda kitobxonlarga o'zgacha bir ta'sir ko'rsata oladi. Ushbu qissa, "O'zbekiston Qahramoni" Sayid Ahmad ta'riflagandek, "...dostondek o'qiladi. Uni o'qib o'z onalarimizni o'ylab ketamiz". Darhaqiqat, bu asar analarning naqadar tengsiz, e'zozli va mo'tabar ayol, oilasi, farzandlari uchun eng aziz ne'mati bo'lgan jonidan ham kechaolishi yana bir bor isbotlagan.

Dunyodagi hamma onalar farzandiga munosabat bobida bir-biriga juda o'xshaydi. Bas, shunday ekan, bu asar sizlarga bag'ishlanadi aziz Onajonlar! (1)

Umuman jahon adabiyotida ham, o'zbek adabiyotida ham onalar obrazi madh etilgan turli xil qissalar-u hatto romanlar ham juda serob. Ammo boshidan to oxirigacha faqatgina ona timsoli



ulug'lantirilgan va boshqa asarlardan farqi onaning cheksiz mehr-u muhabbati aks ettirilgan asar O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi hisoblanadi.

"Dunyoning ishlari"-Onalar sharaflangan abadiy barhayot mash'alidir.(2)

Xuddi shunday,ushbu asarda o'zbek onalarining sabr bardoshi,oilasiga sadoqati va shu bilan birga soddaligi ham o'zining go'zal taavirini topgan dasak mublag'a bo'lmaydi.

"Dunyoning ishlari"qissasi katta-kichik hikoyachalardan iborat.Shunga qaramay,biz uni o'qiyotganimizda butun boshli roman o'qigandek o'zimizga taassurot olamiz.Asar qahramonining tush ko'rishi va tushida onaning kelishi voqeasi bilan boshlanadi va deyarli hamma voqealarda qahramonning bolalik davrlari yodga olinadi.

Qissa ichidagi hikoyalarning hammasida xarakterlararo va ichki konfliktlarni ko'rish mumkin.Masalan:"Haqqush" hikoyasidagi Ilhaq va Is'hoq o'rtasidagi xarakterlararo konflikt bo'lsa,"Bola yig'isi" hikoyasida qahramonning onasiga nohaq gapirib, keyin afsuslanishi ichki konfliktga misol bo'laoladi.Bundan tashqari birgina "To'y" hikoyasini olib tahlil qiladigan bo'lsak,muallif Toyir bilan birga o'tgan yoshlik yillarini eslashi,uning bo'sh bayovligi-yu, burni oqib yurishi eslashi kabi hodisalarni asarning ekspozitsiyasi deb hisoblasak,Toyning onasi bemor bo'lib qolganida muallifning onasi hatto qahraton qishda bir necha chaqirim masofani bosib Toyini emizib kelishi esa kulminatsiya qismi hisoblanadi.Shu bilan birga muallif Toyning

akasi ekanligi Toy unga uka tutingani voqeasi asarning yechimi bo'la oladi.

Qissada urushdan keyingi davrlardagi ocharchiliklar ta'siri,bunda o'zbek ayollarining matonat bilan bolalarini katta qilgani,ularni qiyinchiliklardan omon olib chiqa olgani ham o'z o'rniga ega.Yana shu bilan bir qatorda "Kaltakesakning dumi" hamda "Qanoat" hikoyasida Mo'min akaning xotini tasviri chinakam o'zbek ayoli ta'rifiga umuman mos emas deb o'ylayman.Negaki,birida faqat hayotidan,turmushidan nolish,qarg'ashlar holati kuzatilsa,birida yaxshi,yengil hayot kechiraman deb yomon yo'llarga kirib qolgan ayollar obrazi ta'sirchan tarzda ifodalangan."O'risbolaning onasi" hikoyaning qahramoni bo'lgan Zebi xola esa yuqoridagi ayollarning mutlaqo teskarisi sifatida gavdalanir. Unda bolalari va turmush o'rtog'ini urush tufayli yo'qolgan bo'lsa-da rus bolasi Valintinni asrab olib,uni katta qilishi Zebi xolaning erkaklardek baquvvatligi,ro'zg'orini o'zi eplab,Valiga yaxshi tarbiya berib o'stirishini esa "Mana haqiqiy o'zbek ayolining matonati" dagan ta'rifga arziydi.

O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasini o'qiganimizda har birimizning ko'z oldimizga eng avvalo onamiz gavdalanadi.Yoshlik davrimizni xotiralab,uni qumsaymiz.Yozuvchining ham maqsadi aynan shu bo'ladi aslida.

Biz yuqorida asar boshdan oxirigacha ona tasviriga,ta'rifiga bag'ishlangan dedik, unda onaning barcha go'zal xislatlari bilan birga oilada tutgan o'rni,farzandlarni qanday tarbiyalash,oqila hamisha birovlariga yaxshilik tilaydigan onani va o'z onayizorimizni ko'rgandek bo'lamiz. Bu asar shunday buyuk qudratga ega.

References:



1.O'tkir Hoshimov "Dunyoning ishlari"T.2018

2.XX asr O'zbek hikoyalari antologiyasi. T.:O'zbekiston milliy ensiklopediyasi,2001,675b.

3. D.Quronov.Adabiyot nazariyasi asoslari.T.:Navoiy universiteti,2018,475b.

4.ziyo.uz.